

QO'RIQXONALAR - BARQAROR RIVOJLANISH POYDEVORI SIFATIDA

Usmanova R – Qarshi davlat universiteti dotsenti

Kamolova M – Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada barqaror rivojlanish tushunchasi, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanishda qo'riqxonalarning o'rni muhokama qilinadi. Bioxilma-xillikni asrash orqali tabiiy ekotizimlar muvozanatni saqlab qolish yoritilgan. Jumladan, O'rta Osiyo o'lkasida joylashgan ba'zi qo'riqxonalarning geografik joylashuvi, tabiiy xususiyatlari va ulardagi "Qizil kitob"ga kiritilgan flora, faunalar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, atrof-muhit, qo'riqxona, buyurtma, milliy bog', ekotizim, bioxilma-xillik, noyob,"Qizil kitob".

ЗАПОВЕДНИКИ - КАК ОСНОВА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Усманова Р. – доцент, Каршинский государственный университет

Камолова М. – студентка Каршинского государственного университета. Узбекистан.

Аннотация: В статье обсуждается понятие устойчивого развития, защита окружающей среды и роль заповедников в устойчивом развитии. Освещено поддержание баланса природных экосистем путем сохранения биоразнообразия. В частности, описаны географическое положение, природные особенности некоторых заповедников, расположенных в Средней Азии, а также флора и фауна,

Ключевые слова: устойчивое развитие, окружающая среда, заповедник, заказник, национальный парк, экосистема, биоразнообразие, уникальная "Красная книга."

RESERVES AS THE FOUNDATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Usmanova R – Associate Professor, Karshi State University

Kamolova M – Student, Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: The article discusses the concept of "sustainable development," environmental protection, and the role of nature reserves in sustainable development. Maintaining the balance of natural ecosystems through biodiversity conservation is highlighted. In particular, the geographical location, natural features, and flora and fauna listed in the "Red Data Book" of some nature reserves located in Central Asia are

Keywords: sustainable development, environment, reserve, order, national park, ecosystem, biodiversity, unique "Red Book."

Kirish. Butun dunyoda atrof-muhit muhofazasi umumbashariy miqyosdagi eng muhim masalalardan biridir. Mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, jumladan aholi o'sishining ortishi, sanoat va transport vositalari ko'payishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan meyordan ortiq foydalanish bioxilma-xillikni kamayishiga olib kelib, ekotizimlar muvozanatini buzilishiga va biosferaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu tufayli, dunyo bo'yicha tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekotizimlarning muhofaza qilish orqali barqaror rivojlanishning asosiy poydevorini yaratish zarurati yuzaga keldi.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi insonning tabiatga ko'rsatadigan ta'siri natijasida tabiiy landshaftlar antropogen landshaftlarga aylanadi va tabiiy hamda antropogen omillar o'zaro uyg'unlashib ketadi. Shu sababli, O'rta Osiyoda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va uning ekologik sharoitini o'rganishda milliy bog'lar, qo'riqxonalar, buyurtmalar va kelajakda muhofaza qilinishi lozim bo'lgan tabiiy hududlarni ajratish va ularning rolini baholash maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Barqaror rivojlanishning asoslari Yevropada XVII va XVIII asrlarda ishlab chiqilgan barqaror o'rmon xo'jaligi to'g'risidagi g'oyalarga borib taqaladi [3;4;5]. Barqaror rivojlanish atamasini birinchi marta 1980-yilda "Tabiatni muhofaza qilish" xalqaro ittifoqi tomonidan nashr etilgan. Barqaror rivojlanish tushunchasining yanada kengroq tarqalishiga Brundtland (1987-yil) hisoboti hissa qo'shgan. Barqaror rivojlanish – tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni asrash

va ekologik barqarorlikni saqlash orqali tabiatni asrashni maqsad qiladigan ustuvor yo`nalishdir.

O`rta Osiyoda Orol dengizining qurishi natijasida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Keyingi yillarda mintaqada ekologiya tizimini yaxshilash, biologik xilma-xillikni tiklash kabi dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifasi Markaziy Osiyo davlatlarining oldidagi majburiyatlaridir.

Qo`riqxonalar va barqaror rivojlanish bir-biri bilan uzviy bog`liq tushunchalar sifatida, kelajak avlodlar uchun tabiatni muhofaza qilish va resurslarni asrab qolish maqsadlarida muhim o`ringa ega. Qo`riqxonabu tabiati yaxshi saqlangan joy hisoblanib, unda ekotizimlarning rivojlanish qonuniyatini, bioxilma-xillik bilan muhit o`rtasidagi munosabatlarni ilmiy jihatdan o`rganadigan tabiiy laboratoriyadir [1;439 b.]. Ekotizimlarni, landshaftlarni muhofaza qilishda qo`riqxonalardan tashqari milliy bog`lar, buyurtmalar va parvarishxonalarning ham ahamiyati kattadir. Har qanday qo`riqxonada barcha tabiiy hududiy majmualar o`zgartirilmagan holda, qat`iy muhofaza rejimi o`rnatilib, undagi flora va faunani ko`paytirish, va kelgusi avlod uchun asrab-avaylash kabi vazifalar amalga oshiriladi.

O`rta Osiyodagi buyurtmalarning asosiy vazifasi noyob o`simlik, hayvon turlarini yoki tabiatning noyob joylarini asraydi, o`simlik va hayvonlarning ko`payishi uchun sharoit yaratadi [2; C.399];. Ular o`zining xususiyatiga ko`ra vaqtincha va doimiy turlarga bo`linishi mumkin. Muhofaza qilinayotgan turlarning o`rtacha soni tiklangandan keyin cheklov bekor qilinadi va buyurtma yana ov qilinadigan joyga aylanadi. O`rta Osiyoda keyingi yillarda botanik, zoologik, geologik, ixtiologik, ornitologik va boshqa xil buyurtmalar tashkil qilinmoqda.

O`zbekiston hududida alohida muhofaza ostiga olingan hududlar tekislik, tog` oldi va tog`li rayonlarda tashkil qilingan. O`zbekistondagi qo`riqlanadigan hududlar uch xil: tog`-archa, to`qay va cho`l- qum landshaft turiga oiddir.

Biz quyida O`rta Osiyoning ba`zi qo`riqxonalariga qisqacha tavsif berib o`tamiz. Zomin milliy bog`i O`zbekistonda dengiz sathidan 1000-4030 metr

balandlikda Turkiston tog'larining Shimoliy yon-bag'irda Sangzor va Zomin daryolari havzasida, joylashgan. U 1976 yil 3 sentyabrda 45590 gektar maydonda tashkil etilgan. Bog` xushmanzara va xilma-xil noyob va tipik landshaftlar bilan birga, archa o'rmonlari ekotizimlarning bir butunligi, o'zgarmagan tabiiy majmualarning ko'pligi uni tashkil etishga zamin yaratgan. Zomin milliy bog`ida sudralib yuruvchilarning 6 turi, parrandalarning (kaklik, qirg`iy, burgut, boltayutar, Himolay kurkasi), 63 ta va sutemizuvchilarning 18 turi (oq tirnoqli ayiq, to'ng'iz, silovsin, bo'ri, tog' echkisi, arxar, jayron va boshqalar) mavjud [7;11].

Turkmanistondagi qo'riqxonalaridan biri Xazar qo'riqxonasi 2ta bo'limdan iborat (Gasan ko'li va Turkmanboshi) bo'lib, uning hududi cho'llar, quruq subtropiklar va sayoz dengiz qo'ltiqlarining tabiiy majmuasidan tashkil topgan. Qo'riqxonaning maydon 192,3 ming gektar bo'lib, 1968 yilda tashkil etilgan. U Ramsar xalqaro konvensiyasi bilan muhofaza qilinadigan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvli-botqoqli yerlar ro'yxatiga kiritilgan [7;9].

Qo'riqxonada sutemizuvchilarning 18 turi va qushlarning 372 turi mavjud. Ularning deyarli yarmi suvda va suv bo'yida yashaydi. Qo'riqxonaning o'ziga xosligini shundan iboratki, maydonining 85% dan ortig'ini akvatoriya, ko'rfaz va dengiz egallaganligi tufayli faunasi shu sharoitga moslashgan. Bu xususiyat uning florasiga ham ta'sir etganligidan suv o'tlarining 40 dan ortiq turi va gulli o'simliklarning 360 turini uchratish mumkin. Qo'riqxonada zoobentosning 30 vakili muhofazaga olingan va yuqolib borayotgan o'simlik, hayvon turlari ko'paytirilib, qayirdagi biotsenozlar muhofaza qilinadi.

"Repetek" biosfera qo'riqxonasi 1927 yilda tashkil etilgan bo'lib, Qoraqum cho'lining sharqiy qismining o'rtasida joylashgan. Asosan, vodiysimon botiqlarga ega tipik qumli cho'ldan iborat bo'lib, maydoni 34 600 gektarni egallaydi. 1979 yilda esa YUNESKO qarori bilan biosfera maqomi berildi. Qoraqum cho'lida harorat 50-60⁰ dan yuqori bo'lishiga qaramasdan, bu yerda cho'l florasining 50 % dan ko'prog'ini tashkil etuvchi 400 ga yaqin zamburug' va o'simlik turlari uchrashi, Repetek qo'riqxonasi florasining boyligidan guvohlik beradi. Qoraqum

va Qizilqum cho'llari endemiklarining 42 tasi (31,8%) qo'riqxonaning o'simlik turlaridan hisoblanadi. Hozirda "Repetek" biosfera rezervatining asosiy vazifasi Sharqiy Qoraqum bioxilma-xilligini muhofaza qilish va monitoring qilishdan iborat. Repetek qo'riqxonasi tabiiy ekotizimlarning xalqaro tan olingan etalonlaridan biridir [7;9].

Janubiy Tojikistonda joylashgan Ramit va Dashti Jum tog'-o'rmon qo'riqxonalari tashkil etilgan. Hisor tizmasining janubida Sarbo bilan Sardan-Miyona daryolari suv ayirg'ichida Ramit qo'riqxonasi joylashgan. Ramitda o'simlik turlari 1200 atrofida bo'lib, Sumbul ferulasi "Qizil kitob"ga kiritilgandir. Shuningdek, qo'riqxonada 150 turdagi endemiklarning 10 tasi "Qizil kitob"ga kiritilgan [7;9].

Qirg'izistondagi Chotqol vodiysida Beshorol qo'riqxonasi joylashgan. Bu qo'riqxonada bir nechta: Piskom, Chandalash, Talas Olatovi va Chotqol tizmalari bilan o'ralgandir. Qo'riqxonada 1200-1500 turdagi o'simliklar bo'lib, yong'oq, mevali, archalari va qayir o'rmonzorlari va ko'plab xayvonot dunyosini asrash va qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi. Qo'riqxonada baland tog' landshaftlari, yong'oqzorlar va Sarichelek ko'li muhofazaga olingan bo'lib, "Qizil kitob"ga kiritilgan qushlar va hayvon turlari bor [6;8].

Xulosa. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish chora – tadbirlarining geografik jihatlarini o'rganish hozirgi kunda muhim sanaladi. Tabiatning bir butunligi tabiiy boyliklardan kompleks foydalanish zaruriyati bilan bog'liq. Qo'riqxonalarda tabiatni muhofaza qilish orqali bioxilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar eng ziddiyatli bosqichiga yetgan hozirgi davrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida barqaror xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P.B., Mamatqulov M., Rafiqov A. – O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, «O'qituvchi», 2002. 439 b.

2. *Заповедники Средней Азии и Казахстана* / Под общ. ред. В. Е. Соколова и Е. Е. Сыроечковского. — М.: Мысль, 1990. — 399 [1] с
3. Patualiyeva Q. B., Batirova U. S. Hududning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 6. – С. 480-482.